



CHET TILLARINI O'QITISHDA BILIM VA KO'NIKMALARNI UYG'UNLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Mamajanova Maxbuba Mirzayevna

Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti

Raimjonova Feruza Sobir qizi,

Hakimova Gulxumor Yorqinjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti

21.88-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rgatishda bilim va ko'nikmalarni uyg'unlashtirib, turli xil metodlar va usullarni birlashtirgan holda foydalanish o'zlashtirish samaradorligini yuqori darajada o'sishiga olib kelishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy tillar, zamonaviy texnologiyalar, tinglab tushunish, so'z boyligi, grammatik qoidalar, texnik vositalar, ta'lim prinsiplari.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlangan va axborotlashgan davr yoshlari sifatida hozirgi kun talabiga mos darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish va ularni amaliyotda qo'llash orqali yuqori natijalarga erishish va shuningdek, mamlakat taraqqiyotiga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida ta'lim sifati va o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligida ijobiy natijalar ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, bolalarga chet tillarini yanada chuqurroq o'rgatish bugungi kunda zamon talabiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son [qarorining qabul qilinganligi ham](#) bugungi kunda talim muassasalarida xorijiy tillarni o'rgatishga bo'lgan e'tibor har qachongidan ham kuchliroq ekanligining yaqqol dalilidir. Mamlakatni har tomonlama rivojlantirish, nafaqat yurtimizni balki o'z-o'zini yuksaltirish uchun bugungi kun yoshlaridan kuchli bilim, o'tkir tafakkur, intellektual salohiyat, axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalana olish ko'nikmalari talab etiladi. Xorijiy adabiyotlarni o'qib tahlil qilish hamda amaliyotga tadbiq etish zarur.

Hozirda chet tilini o'rganish to'rt aspectga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar



berilmoqda. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish zarur. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

- kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;

- chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniya dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;

- ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish;

- CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va

ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bermalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali



o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi. Shuning uchun o'qituvchi har bir mavzuga mos tarzda turli xil o'yinlar tayyorlaydi.¹

Xulosa qilish mumkinki, har bir innovatsion texnologiya o'ziga xos

afzallik jihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi. Xorijiy til darslarida innovatsion texnologiyalar va usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Darslarning noan'anaviy usullarda, turli metodlarni qo'llagan holda tashkil qilinishi orqali zerikarli mashg'ulotlarning oldi olinadi. Bu esa yosh avlod o'rtasida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishning, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqning ortishiga, darslarning esa samarali tashkil etilishiga zamin yaratadi. Natijada o'quvchilarning darsga puxta tayyorgarlik ko'rib kelishiga, o'zlashtirish samaradorligining jadal o'sishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Q. Xatamova, M.N. Mirzayeva. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar " (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet;

2. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish " Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
O'.Hoshimov, I. Yoqubov. "Ingliz tilini o'qitish metodikasi " (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2003;

3. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil O'zbekiston Respublikasi, M. P. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi;

4. Kobilova N.R., Bagapova G. V. "Nofilologik oliy o'quv yurtlarida xorijiy til ta'limni takomillashtirishda didaktik materiallardan foydalanish" Fan va jamiyat. Nukus. 2019 (№4) 185-189 betlar

5. <https://lex.uz>;

6. www.samdchti.uz;

7. algoritm-centr.ru.

¹ Osiyo Yormuhammad qizi Shukurova. Chet tillarini o'qitishda o'qituvchining roli, Scientific progress, 2022